

1

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA'LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Buxoro – 2022



Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar [Matn]:
maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Saidova M.J. – p.f.f.d. (PhD), dots.

Tosheva N.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Saidova R.A. – f.f.f.d (PhD)

Sobirova D.R. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Murodova G.A. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Ushbu an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamlı islohotlar, pedagogik ta'limda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, amaliy hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© BuxDU PEDAGOGIKA INSTITUTI



tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, kadrlar tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish barobarida ularning rahbarlik salohiyati va ma'naviyatini yuksaltirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni T.2020
- 2.F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'lotova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova; Maktabgacha pedagogika.-T.: Fan, 2019.
- 3.Hasanboyeva O, Tadjieva M, Toshpulotova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi,T.: Ilm-ziyo, 2012.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Salixova Lobar Farhodovna,

BuxDUPI talabasi

f.f.d.(PhD) dotsent M. Ro'ziyeva

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ishlar nafaqat yurtdoshlarimizni, balki jahon hamjamiyatini ham birdek qiziqtirmoqda. Bu ishlar samarasi o'laroq ta'lim sohasiga berilayotgan ishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish uchun o'qtuvchilardan kuchli bilim va katta mehnatni talab etadi.

Bugungi axborotlashgan zamonda o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish, bilimlarini oshirish, o'z mustaqil fikriga ega hamda uni erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun turli interfaol metod va ta'limiy o'yinlardan foydalanish zarur.

Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan jajji o'quvchi undan qat'iy tartib – intizom talab etuvchi muhitga tezgina moslashib kirishib keta olmaydi, shuning uchun o'qtuvchi darsda o'quvchilar zerikib qolmasligi uchun ta'limiy o'yinlardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda ularga noma'lum bo'lgan narsalarni o'rgatishda o'qituvchilar va o'quvchilarda bir nechta



qiyinchiliklar paydo bo'ladi, bunday muammolarni hal etishda bizga interfaol metod va ta'limiy o'yinlar yordam beradi.

Misol uchun so'z turkumlarini o'rganishda quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin:

1. "Bilimlar daraxti" o'yini. Bu o'yinni gap mavzusida qo'llasa bo'ladi. Daraxtga shaxs va narsaning nomini bildirgan rasmlar ilib qo'yiladi. O'quvchilar kim? va nima? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni ajratib xattaxtaga yozishadi. Shu so'zlarga mos qanday? va nima qildi?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zlari ongli tarzda aytishadi. Natijada ot, sifat, fe'l qatnashgan bitta gap hosil qilishadi.

2. "Kim g'olib" o'yini. Ushbu o'yin o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o'quvchilar ham g'olib bo'lishi uchun, ham ko'proq bilim olish uchun kurashadilar. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Ularga o'tilgan mavzu yuzasidan ketma-ket ma'lumot aytishlari soroladi va tayyorgarlik uchun vaqt ajratiladi. Qaysi guruh a'zolari mavzu yuzasidan ko'proq va mazmunli ma'lumotlar aytgan bo'lsa, g'olib deb e'lon qilinadi.

Bilimdonlar guruhi

Son shaxs va narsaning sanog'ini bildiradi

Sonlar harflar va raqamlar bilan yoziladi

Topqirlar guruhi

Qancha? Nechta? so'roqlariga javob bo'ladi

-inchi qo'shimchasi o'rnida chiziqcha(-) ishlatiladi.

3. "Jim" o'yini. Bunda o'quvchilarning ziyrakliklari, imlo qoidalariga rioya qilishlari tekshiriladi. Talaffuzda tushib qoladigan undosh tovushlarni o'rgatganda qo'llaniladi. O'quvchilar qo'lining bir tarafiga "t" va ikkinchi tarafiga "d" harflari yozilgan kartochkalar tarqatiladi va o'qituvchi so'zlarni navbati bilan yozadi ;



Masalan: Xursan...? oxiriga qo'yilishi kerak bo'lgan harfni o'quvchilar ovoz chiqarmasdan "d" harfini ko'tarishadi, noto'g'ri ko'targan o'quvchi o'yindan chiqadi va o'yin shu tarzda davom etadi.

4. "Xotira mashqi" o'yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida darslarda bu o'yindan foydalanish mumkin. O'quvchi o'z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib, shoir yoki o'qigan asarlari nomini aytadi:

Adham – Alisher Navoiy.

Doston – Donishmand chol.

Demak, ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini va darsning sifat samaradorligini oshirishga xizmar qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Sh. Salihov. Psychological Features of Formation of Emotional-Will Sphere of Athlete Personality // Intellektual archive. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 226-
3. Shohrukh Salikhov, Timur Salikhov, (2021). Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 205-210.
4. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 461-
5. T. Salikhov, Temperamental Properties of Personality and its Importance in Organization of Sports Activity //Intellectual archive. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 221-



6. Шохрух САЛИХОВ, Тимур САЛИХОВ. ЎҚУВЧИЛАРДА СОҒЛОМ
ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХО-ФИЗИОЛОГИК
АСОСЛАРИ //PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
(buxdu. uz). – 2020. – №. 6. – С. 80-84.
7. S. Salihov, M. Umidjanova Psychological Features of Formation of Emotional-
Will Sphere of Athlete Personality //Intellectual archive. – 2020. – Т. 9. – №. 1. –
С. 226-
8. Салихов Шохрух, Салимов Тимур. РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОММУНИКА-
ЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2021. – Т. 2. –
№. 1. – С. 101-
9. Shoxrux Mansurovich Salixov, Timur Mansurovich Salixov. Bo'lajak jismoniy
madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and
Education" Scientific Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1013-
10. Shoxrux Salixov, Timur Salixov. TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR
BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
//PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal (buxdu. uz). – 2021.
– №. 3. – С. 124-127.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILİYATLARINI

RIVOJLANTIRISH

Xasanova Mehrangiz Mashrabovna

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim hamda san'at maktablarida tasviriy san'at darslarining samaradorligini yanada oshirish, tabaqalashtirilgan holda o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari hamda metodlari xususida so'z yuritilgan.

